

## PEDAGOGNING PEDAGOGIK MAHORATI MAZMUNI

*Joldasbaeva Ramuza Kuatbaevna*

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*1 a geografiya talabalari Uralbaev Aybek, Quralbaev Amirxon*

**Annotatsiya:** *Har bir o'qituvchi uchun nihoyatda zarur hisoblangan pedagogik mahorat va uning komponentlari xususida so'z yuritiladi. Maqolada pedagoglarning kasbiy mahoratlari, samarali dars o'tish usullari tasvirlangan.*

**Kalit so'zlar:** *mahorat, ta'lim, madaniyat, aql, bilim, texnika, qobiliyat, psixologiya, talant.*

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni qayta ishlab chiqildi. Bu omil ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo'lishini taqozo etadi. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa, ta'limni tashkil etishda pedagogik mahoratning tarkibiy shakllari keng ko'lamda joriy etilishi kuzatilmoqda. [1] Mazkur o'zgarishlarning bir qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibidan o'sib chiqqan bo'lsa, yana bir qismi dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo'ladi. Shu o'rinda ilg'or pedagogik mahorat fanining mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur. Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ta'lim sohasida o'qitishni o'qituvchining yuksak pedagogik mahorati asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda. O'zbekistonda ham ushbu muammoga oid izlanishlar, tadqiqotlar olib borilayotgani sir emas, biroq bu jarayonning yahlit metodikasi, tizimi haligacha ishlab chiqilgan emas. Shu sababli ham bu holatni tuzatish uchun jiddiy e'tibor

qaratish zarurligi dolzarb pedagogik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotning amaliy ahamiyati: pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonini muammoli yondashuvlar asosida tashkil etish omillari, yo'llari, pedagogik shart-sharoitlari ko'rsatib berildi. Tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan pedagogik mahorat fanini o'qitish ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi adabiyotlar, qo'llanmalar hamda uslubiy ishlanmalarni yaratishda foydalanish mumkin.

“Pedagogik ensiklopediya”da ta’rif quyidagicha izohlangan: “O 'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, .tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. [2]

Ushbu ta’rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O 'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o ‘zaro bir-biri bilan bog'liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash]

«Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahoral ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedago gik hamkorlik,

pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida m a'lu motlar berib boradi. [3]  
Bu maqsad bolajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va meto dologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik ham korlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachili] mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texno logiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'analarimizda va O'rt Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogil mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj v havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi m a'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.

6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz m a'lumotlami o'rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyi'ligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi

faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, am aliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.
- 2) O'qituvchining ruhiy - psixologik tayyorgarligi.
- 3) O'qituvchining ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi. Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, O'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim

Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar quyidagilar:

- a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- b) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi;
- v) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;
- g) o'quv - tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik- psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- d) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;
- e) jamoani «ko'ra bilish», o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard

bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;

j) o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi.[4]

O 'qituvchilik faoliyati ushbu kasbni tanlagan har bir yosh yigit qizlardagi qobiliyat va iste'dodning barcha qirralarini ishga solish majbur qiladi. A.S.Makarenkoning fikricha, "jamoada 40 qobiliyatsiz o'qituvchi orniga 4 ta qobiliyatli tarbiyachi-o 'qituvchi bo'lgani ma'qul"ligi haqida gapirgan edi. Bu bilan u qobiliyat kishilar ta'lim-tarbiya ishiga katta zarar etkazishi mumkinlig alohida uqtiradi.

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'ri sidagi muammolar yevropa olimlari Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, < Pestalotssi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilaming asarlarida o ifodasini topgan.

Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya. . Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalar sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilai kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoq rashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o'qituvchilik «y yuzidagi har qanda» kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasl ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlari chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilis zarur. [5]

Ya.A Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning sha sida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'ki laydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'qu chilarga rnehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga hccvas uyg'tuvchi, o 'quvchilarni o 'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e 'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalotssi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqlirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlari ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, gavratshijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

KLD.Ushinskiy o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: "Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'qituvchi uchun o'qituvchi o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turishi uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosib o'tirishi. Serdiqqat bo'lishi kerak. Marta shu sababdan bilimi bo'lga har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tome nidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani inson bilan ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi". K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalargi nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan ma'naviy oyinasi ijtimor qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishd; namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim tarkibiy qism o'qituvchining xarakteri va his-tuyg'ularida, uning o'quvchilar bilan mu loqotga kirishish usulida namoyon bo'luvchi pedagogik-psixologik takt (odob, axloq) xususiyatlarini qo'llashdir. Uning fikricha psixologik takt (odob, axloq) hayotimizning barcha jabhalarida g'oyatdi keng qo'llaniladigan faoliyat turi, shuning uchun ushbu taktlar: ega bo'lmasdan, odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyati ning o'zi

ham bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi. «Aqlli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarn qiziqitirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql - aq bilan tarbiyalanadi, vijdon - vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik - bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan..., - deb ta'kidlagan ed mashhur rus pedagogi V.D.Suxomlmskiy. - O'qituvchi o'zining butui borlig 4, kundalik hayoti, ta 'naviy madaniyati bilan hamkasblari v< o 'quvchilarga o 'tak bo 'ladi va ularni o 'z ortidan ergashtiradi».[6]

Ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogik mahorat fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga keng ko'lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Pedagogik mahorat faniga oid axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishini yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Demak, bo'lajak o'qituvchini professional faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahorat fanini nnovasion ta'lim texnologiyalar yordamida o'zlashtirishning o'rni beqiyosligi hamda o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi davr talabidir. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik mahorat komponentlarini pedagogik texnologiyalar asosida tatbiq etish mazkur muammoni ijobiy hal etishning pedagogik kafolatidir. Ishlab chiqarish sohalarining barkamol shaxs va malakali mutaxassis bilan ta'minlanishi ijtimoiy harakatni yuzaga keltiruvchi vosita, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning eng muhim omilidir. Malakali kadrlarni tayyorlash jarayoniga nisbatan muammoli yondashuv ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashga olib keladi. Shu bois so'nggi yillar mobaynida ta'lim tizimida pedagogik mahorat komponentlaridan samarali foydalanish masalasiga respublika miqyosida alohida e'tibor berib kelinmoqda.[7] Ta'lim muassasalarining faoliyat jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bir qator shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining ‘Ta’lim toshg‘risida’gi qonuni. //Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 20-29 betlar
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - ishkent, TDPU, 2003,- 174 b.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni ihsil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fanlari dokt. ilmiy r. uchun diss. - T.: 2007.- 305 b.
4. Бизяева А.А. Рефлексивные процессы в сознании и деятельности ителя //Дисс. канд. психол. наук.- С.- Пб.,- 1993.- 190 с.
5. Биков А.К. Теория и практика развития педагогического мастера преподавателей высшей военной школы //Д69. Sulstonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU 2005 - 149 b.
6. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. - T.: O‘qituvchi, 1984. - 254 b.
7. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘qn\ qo‘llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: O‘qituvchi, 1991. - 376 b.